SHAHRISABZ TUMANINING EKOTURISTIK OBYEKTLARI VA MARSHRUTLARI

Chorshanbiyeva Mahliyo Nuraliyevna
O‘zbekiston Milliy Universiteti
mahliyonurali@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shahrisabz tumanining tabiiy-geografik sharoiti va ekoturistik salohiyati tahlil qilingan. Tumanning tog‘ oldi va tog‘li hududlari, xilma-xil landshaftlari, suv obyektlari, sharsharalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi ekoturizmni rivojlantirish uchun muhim tabiiy resurslar sifatida yoritilgan. Shuningdek, Miraki, Hisorak, Suvtushar, G‘ilon va Ko‘l ekoturistik yo‘nalishlarining geografik va turistik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ekoturistik obyektlardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish va mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shahrisabz tumani, ekoturizm, ekoturistik salohiyat, tabiiy-geografik sharoit, landshaft, ekoturistik obyektlar, turistik marshrut, Miraki, Hisorak, Suvtushar, G‘ilon, Ko‘l, turizm infratuzilmasi, atrof-muhit muhofazasi.*

Аннотация. *В статье проанализированы природно-географические условия и экотуристический потенциал Шахрисабзского района. Рассмотрены горные и предгорные территории, разнообразные ландшафты, водные объекты, водопады, растительный и животный мир как важные природные ресурсы для развития экологического туризма. Особое внимание уделено географическим и туристическим особенностям экотуристических маршрутов Мираки, Хисорак, Сувтушар, Гилан и Куль. Также рассмотрены вопросы рационального использования экотуристических объектов, охраны окружающей среды, совершенствования туристической инфраструктуры и вовлечения местного населения в туристическую деятельность.*

Ключевые слова: *Шахрисабзский район, экотуризм, экотуристический потенциал, природно-географические условия, ландшафт, экотуристические объекты, туристический маршрут, Мираки, Хисорак, Сувтушар, Гилан, Куль, туристическая инфраструктура, охрана окружающей среды.*

Abstract. *This article analyzes the natural-geographical conditions and ecotourism potential of Shahrisabz District. The foothill and mountainous areas,*

diverse landscapes, water bodies, waterfalls, flora and fauna are considered important natural resources for the development of ecotourism. Particular attention is paid to the geographical and tourism characteristics of the Miraki, Hisorak, Suvtushar, Gilon and Kol ecotourism routes. The article also considers the rational use of ecotourism sites, environmental protection, improvement of tourism infrastructure, and the involvement of local communities in tourism activities.

Keywords: *Shahrisabz District, ecotourism, ecotourism potential, natural-geographical conditions, landscape, ecotourism sites, tourist route, Miraki, Hisorak, Suvtushar, Gilon, Kol, tourism infrastructure, environmental protection.*

Shahrisabz tumani turistik ya’ni ekoturistik obyektlarga boy hududlardan hisoblanadi. Shahrisabz tumani go‘zal tabiat manzaralari, o‘ziga xos relyef shakli, nodir tarixiy obidalar, tabiiy diqqatga sazovor joylar va qo‘riqlanadigan tabiat yodgorliklariga ega ajoyib go‘sha hisoblanadi. Tumanda turizmning deyarli barcha turlarini shakllantirish mumkin. Chunki hudud boy resurs imkoniyatiga ega. Shahrisabz tumanida joylashgan ekoturistik obyektlarning tarqalishiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, quyidagi qonuniyatni anglash mumkin. Shahrisabz tumani hududida ekoturistik obyektlarning tarqalishi o‘ziga xos tabiiy-geografik xususiyatga ega hisoblanadi.

Tumanda ekoturistik obyektlarning joylashuv xususiyati o‘ziga xos bo‘lib, ular asosan dengiz sathidan 1000 metr va undan baland bo‘lgan tumanni sharqiy, shimoliy-sharqiy qismini egallagan tog‘ oldi va tog‘li hududlarida joylashgan. Umuman olganda tumandagi ekoturistik obyektlarning 89% dengiz sathidan 1000 metr va undan balandda joylashganligi alohida ahamiyatga egadir.

Shahrisabz tumani o‘zining xushmanzara tabiati, tabiiy ekoturistik salohiyati bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Binobarin, tuman hududining geomorfologik jihatdan tekislik, tog‘ oldi va tog‘li hududlardan iborat ekanligi, mos ravishda tabiiy landshaftlarning vujudga kelganligi, ekoturistik salohiyati va shu bilan birga xo‘jalik jihatdan eski hamda yangi o‘zlashtirilgan hududlar, o‘z navbatida sayyohlarni jalb etish va turizmni rivojlantirish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi [3].

Bugungi kunda respublikamizda sayyohlikning turizm, madaniy-ma’rifiy, ekstremal, arxeologik, rafting, sport, folklor-etnografik, tibbiy va rekreasion turizm, agroturizm va ekoturizm kabi turlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu borada Shahrisabz tumani o‘zining tabiiy ekoturistik salohiyati va ularning hududiy tarkibidan kelib chiqqan holda zamonaviy sayyohlikning bir necha turlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Hozirda tumanda jahon miqyosida talab tobora

ortib borayotgan ekologik, tibbiy va rekreasion turizm va ekoturistik kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud [3].

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ekoturistik obyektlardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni yetarli darajada himoya qilish va sayyohlar uchun qulay yashashni ta'minlash uchun bir qator qoidalarga rioya qilish juda muhimdir. Masalan, inshootlar tabiiy ekotizimni iloji boricha kamroq buzishi kerak. Ular iloji boricha ko‘zga tashlanmaydigan va mahalliy materiallardan qurilishi kerak. Chet el materiallaridan (asbest qoplamalari, shlakli bloklar, plastmassa va boshqalar) foydalanish qabul qilinishi mumkin emas. Binolar mahalliy uslubga mos kelishi va atrofdagi muhitga mos kelishi kerak. Sayyohlar uchun turar joylar kamtarona, ammo toza va qulay bo‘lishi kerak [2].

Ekoturizm markazlari kuzatiladigan joylarni, o‘z-o‘zini boshqarish sayohatlari bilan tabiat yo‘llarini, axborot markazlarini, kuzatuv minoralari va boshpanalarini, ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatish joylarini, chiqindilarni yig‘ish punktlarini va boshqalarni o‘z ichiga olishi kerak. Bog‘dagi yo‘llar ehtiyotkorlik bilan bo‘lishi va relyefning konturlariga mos kelishi kerak. Ular to‘g‘ri chiziqda emas, balki eroziyani minimallashtiradigan tarzda joylashtirilishi kerak. Sayyohlar uchun binolar va inshootlarni loyihalash va qurishda turli xil ekotexnologiyalardan foydalanish rag‘batlantirilishi kerak. Masalan, suv isitish, kosmik isitish va boshqa ehtiyojlar uchun quyosh energiyasi tizimlaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy shamollatish (konditsioner o‘rniga) va boshqalar [2].

Shahrisabz tumanining ekoturistik salohiyatini yanada rivojlantirish, turistlarni go‘zal tabiat manzaralari, o‘ziga xos relyef shakli, nodir tarixiy obidalar, tabiiy diqqatga sazovor joylar va qo‘riqlanadigan tabiat yodgorliklariga ega ajoyib go‘sha hamda noyob tarixiy-madaniy va me’moriy meros ob’ektlari bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, manzilli turizm xizmatlarini ko‘rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tumanni turli madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkazish markaziga aylantirish orqali hududga turistlar oqimini yanada ko‘paytirish hamda ularning hududda bo‘lish davomiyligini uzaytirish, shuningdek, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholi sonini ko‘paytirish maqsadida 08.03.2019 yil 198 sonli Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish choratadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi [1].

Bundan tashqari Shahrisabz tumani tarixiy va tabiiy boyliklarga ega bo‘lib, turizmning bir nechta turlarini taklif qiladi. Tumanda madaniy-tarixiy, ekologik, tog‘ turizmi va dam olish yo‘nalishlari mavjud — yani shunchaki tarixiy obidalarni ko‘rishdan tashqari tabiat va faol dam olish imkoniyatlari ham bor.

Shahrisabz tumanida tarixiy-madaniy sayohatlar, tabiat va ekoturizm, aktiv dam olish, mahalliy hayot tajribasi va ba’zan madaniy tadbirlar bo‘yicha turli yo‘nalishlarda sayohat qilish mumkin. Bu hududda tarixiy obidalar, tog‘ manzaralari, suvga oid dam olish va faol sayr joylari sayyohlarni qiziqtiradi.

Ekoturizmning ekologik, ilmiy-ma’rifiy, tog‘, qishloq, sarguzasht va rekreatsion yo‘nalishlari hududning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi ta’kidlandi. Tadqiqot natijalari Shahrisabz tumani ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy-geografik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Ekoturizmning rivojlanishi ekologik ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Tumanning geografik o‘rni, Hisor tog‘ tizmasi etaklarida joylashgani, balandlik mintaqalarining xilma-xilligi, tog‘ va adir landshaftlari, daryo va soylar, sharsharalar, suv omborlari hamda boy o‘simlik va hayvonot dunyosi ekoturistik faoliyatni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, hududning tabiiy va madaniy resurslari o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat ekoturizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Miraki, Hisorak suv ombori, Suvtushar sharsharasi, G‘ilon, Ko‘l qishlog‘i hamda Hisor tog‘larining boshqa tabiiy maskanlari kabi ekoturistik obyektlarning turistik ahamiyati baholandi.

Mazkur marshrutlarni birlashtiruvchi asosiy omillar — Hisor tog‘ tizmasi landshaftlari bilan uzviy bog‘liqlik, balandlik mintaqalanishining yaqqol namoyon bo‘lishi hamda biologik xilma-xillikning yuqori darajada saqlanganligidir. Bundan tashqari, hududda yashovchi aholining an’anaviy turmush tarzi ham ekoturizm rivojiga ijobiy t’sir ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishlar tabiiy resurslarni kompleks o‘rganish, ekologik turizmni rivojlantirish, mahalliy aholi bandligini ta’minlash va barqaror turizm modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shahrisabz hududidagi mazkur ekoturistik marshrutlar o‘zining tabiiy, geografik va madaniy xususiyatlari bilan o‘zaro uyg‘unlashgan holda hududning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim tizimni tashkil etadi.

Quyida (1–jadval) Shahrisabz tumanidagi asosiy ekoturistik marshrutlar yo‘nalishining geografik jihatlari va ekoturistik xususiyatlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

1-jadval

Shahrisabz tumanidagi asosiy ekoturistik marshrutlarning geografik va ekoturistik tavsifi

№	Ekoturistik hududlar	Yo‘nalish	Masofa	Xususiyatlari	Turizm turi	Ahamiyati
1	Miraki	Shahrisabz – Miraki	25–30 km	Tog‘ oldi landshaftlari, archazorlar, toza havo	Rekreatsion, ekologik, oilaviy dam olish	Miraki hududi ekologik toza muhit, milliy an‘analar va qishloq turizmi elementlari bilan ajralib turadi.
2	Hisorak	Shahrisabz – Hisorak suv ombori	40 km	Suv ombori, tog‘ manzaralari, salqin iqlim	Rekreatsion turizm, piknik, baliq ovlash	Hisorak suv ombori hududi turistlar uchun dam olish maskani sifatida mashhur.
3	Suvtushar	Shahrisabz – Suvtushar	75-80 km	Sharshara, tog‘ daryolari, qoyali relyef	Ekoturizm, fototurizm, ekstremal sayohat	Suvtushar sharsharasi hududning eng go‘zal tabiiy obyektlaridan biri hisoblanadi.
4	G‘ilon	Shahrisabz – G‘ilon	85 km	Baland tog‘lar, tor vodiylar, milliy qishloq hayoti	Trekking, etnoturizm, ekstremal turizm	G‘elon qishlog‘i o‘zining qadimiy turmush tarzi va tabiiy izolyatsiyasi bilan ajralib turadi.
5	Ko‘l	Shahrisabz – Ko‘l	90 km	Baland tog‘ iqlimi, alp landshaftlari	Ilmiy-ekologik turizm, trekking	Bu hudud O‘zbekistonning eng baland nuqtasi — Hazrati Sulton cho‘qqisi yaqinida joylashganligi bilan ahamiyatli.

Manba:Shahrisabz tumani ekoturistik hududlarida o‘tkazilgan tadqiqotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shahrisabz tumani Hisor tog‘ tizmasi etaklarida joylashgan bo‘lib, uning tabiiy-geografik sharoiti ekologik turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs hisoblanadi. Hududda shakllangan asosiy marshrutlar — Miraki, Hisorak, Suvtushar, G‘elon va Ko‘l yo‘nalishlari — turli landshaft va ekoturizm turlarini o‘zida mujassam etgan tizimni tashkil etadi.

Shuningdek, bu ekoturistik yo‘nalishlarning geografik xususiyatlari va ekoturistik salohiyati haqida quyida qisqacha tuxtalib o‘tilgan:

➡ ***Miraki yo‘nalishi*** nisbatan qisqa masofaga ega bo‘lib, tog‘ oldi hududlariga xos tabiiy sharoitlar, archazorlar va toza atmosfera bilan ajralib turadi. Ushbu hudud asosan dam olish, ekologik sayohat va oilaviy turizm uchun qulay muhit yaratadi. Shu bilan birga, mahalliy an’anaviy hayot tarzini kuzatish imkoniyati ham mavjud.

➡ ***Hisorak yo‘nalishi*** esa suv resurslari bilan bog‘liq rekreatsion faoliyatlarga moslashgan. Hisorak suv ombori atrofidagi salqin iqlim, tog‘ manzaralari va suv havzasi turistlar uchun dam olish, piknik va baliq ovlash kabi faoliyatlarni tashkil etish imkonini beradi.

➡ ***Suvtushar yo‘nalishi*** tabiiy gidrologik obyektlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda sharsharalar, tog‘ daryolari va qoyali hududlar ustunlik qiladi. Ushbu marshrut foto-turizm va ekstremal sayohatlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, Suvtushar sharsharasi hududning eng diqqatga sazovor tabiiy maskanlaridan biri hisoblanadi.

➡ ***G‘ilon yo‘nalishi*** esa tog‘ ichkarisiga chuqur kirib borishi bilan ajralib turadi. Baland tog‘ relyefi, tor vodiylar va qadimiy qishloq turmushi bu hududni trekking, etnoturizm hamda sarguzasht turizmi uchun jozibador qiladi. Mazkur hududning nisbatan yakkalanganligi uning madaniy va tabiiy o‘ziga xosligini saqlab qolgan.

➡ ***Ko‘l yo‘nalishi*** baland tog‘ zonalarini qamrab oladi va alp tipidagi landshaftlar bilan tavsiflanadi. Bu hudud ilmiy tadqiqotlar va ekologik kuzatuvlar uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, Hazrati Sulton cho‘qqisi yaqinida joylashgani bilan muhimdir. Shu sababli u ilmiy-ekologik turizm yo‘nalishida alohida o‘rin tutadi.

Tumanda ekoturizmni yanada rivojlantirish uchun transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish, ekologik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, yangi marshrutlarni ishlab chiqish hamda mahalliy aholini turizm xizmatlariga faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hududning turistik jozibadorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shahrisabz – Hisor tog‘lari yo‘nalishidagi mazkur ekoturistik marshrut bosqichma-bosqich rivojlanib boruvchi murakkab tizimni tashkil etadi. U sayyohlarni nisbatan sodda tabiiy sharoitlardan boshlab, yuqori tog‘ ekotizimlarigacha olib chiqadi. Natijada, ushbu marshrut hududning tabiiy resurslarini chuqur o‘rganish, ekologik turizmni rivojlantirish hamda barqaror foydalanish tamoyillarini joriy etish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 martdagi 198-sonli “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
2. Слинчак А.И. Основы экологического туризма: курс лекций /. – Псков: Псковский государственный университет, 2016. – 72 с.
3. Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlari, 2024.